



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

milliy tiklanish



Endi «soyada» ishlashning vaqti o'tdi yoki parlament dolzarb vazifalar uchun mas'ul ekanini unutmangiz kerak

3s

Suv havzalari ifloslanishi: ekologik xatardan ogoh bo'ling



7s

O'zbekiston va Ozarbayjon

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATNING QIRQ TO'RTINCHI YALPI MAJLISI OCHILISHI TO'G'RSIDA



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq to'rtinchi yalpi majlisi 2023-yil 24-avgust kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi. Yalpi majlisni videokonferensaloqa tarzida o'tkazish rejalashtirilgan. Yalpi majlis Senatning YouTube tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

O'ZA

HAMKORLIGINING YANGI DAVRI BOSHLANMOQDA

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-avgust kuni rafiqasi hamrohligida davlat tashrifi bilan Boku shahriga keldi.

2s

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

» TURK LIRASI QULASHDA DAVOM ETYAPTIMI? 5s

» NIHOYAT «OZODLIK» O'ZBEKISTONDA 7s

TURIZM SOHASIDA HAMKORLIK 7s

«SEVARSOY» UCHRASHUVLARI DAVOM ETADI



QOYALARDAN BALANDDA

Kalxat qarib, tamom holdan toygan va shu bois ro'paradan esayotgan shamolga qarama-qarshi parvoz etolmas, shamolga chap berish va uni dog'da qoldirish uchun o'zini chetga olar, biroq barcha urinishlari zoye ketar edi...

Temur Po'latov, «Mulk»

Qoya toshning kamgak yeridan quyoshning beozor tillarang nuri ko'rindi-yu, havo sovib ketdi. Quyosh o'zidan sovuq purkayotgandek bo'ldi, undan taralayotgan zarrin izg'irin qoya toshni yonlab-yalab o'tib, qoya yoqasida turgan burgutning qanotiga, bo'yniga qadalayotgan edi. Burgutning oyog'i ostida g'o'dir toshga tegay-tegay deb osilib qolgan qo'ng'ir qanoti yelpig'ichday ohista tebrandi. Sovuq shamol qanotlarining ostidan yo'l topib, uning mayin par qoplagan yumshoq biqinini izillatdi. Burgut bo'ynini vazmin burib, shamol

esayotgan tomonga qaradi. Qoya tosh yemirilaverganidan uning biqinida chuqur o'yiq - kamgak hosil bo'lgan, hozir shamol zabtiga olgani sayin o'sha joydan tosh zarralari tiralib-tiralib ko'chib tushardi. Qo'ng'ir burgut qum zarralarining toshdan ko'chishiga, yerga qo'nib-qo'nmay shamol aralash havolab kelib tumshug'iga, qariyb jonsiz qanotiga urilayotganini kuzatdi. Boshini teskari burdi. Bir sakrasa yetgulik joyda - uya yonida turgan juftiga, uning kiftidagi oqish xol-xol tangachalarga qaradi. Unga orqa qilib turgan jufti bo'ynini cho'zib uzoq-uzoqlarga alangladi. Qo'ng'ir burgut sherigining dumidagi bulutdek oppoq bir tutam patidan ko'z uzmay qoldi. Oq dumli burgut dam yonidagi toshdevor ortida tumshug'ini kappa-kappa ochib tinimsiz chag'illayotgan polaponlarga, dam olis-olislariga qarandi.

(Davomi 6-betda)



MOZIYSHUNOSLARNI BIRLASHTIRGAN NUQTA

Qadimgi va boy tariximizni o'rganish va targ'ib etishda yosh va izlanuvchi o'qituvchilar o'rni tobora kuchayib bormoqda. Buni yosh tarixchilarning 14 - 20-avgust kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi yozgi o'qishlariga doir xulosalar ham ko'rsatdi, deyish mumkin.

Tarix instituti va Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan boshlangan bunday o'qishlarning birinchisi o'tgan yili yoz faslida Bo'stonliq tumani Chimyon qishlog'ida joylashgan Yoshlar oromgohida bo'lib o'tgan edi. Unda saksonga yaqin yosh tarixchilar tarix institutining malakali olimlari ma'ruzalarini tinglashgan, o'zbek xalqi va davlatchiligining qadimgi davridan hozirga qadar bo'lgan o'tmishiga oid masalalar muhokamasida bevosita fikr-mulohazalar bildirishgan edi. Eng asosiysi, ushbu o'qishlar davrida iste'dodli va faol yoshlar zaxirasi shakllantirilib, ularning ayrimlari Tarix institutiga doktorant va stajer-tadqiqotchi sifatida taklif qilingandilar. Bu yilgi tadbirda 350 da'vogardan 90 tasi qatnashdi. Bir necha oy mobaynida tanlab olinganlar orasida bakalavr, magistr, stajer-tadqiqotchi, doktorant, ilmiy xodim va o'qituvchilar bor.

Tarixchi olimning, eng avvalo, millatsevar va vatanparvar, zamonaviy ilmiy tafakkur egasi, keng dunyoqarashli, tegishli sharh va g'arb tillari bilimdoni bo'lishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi zarurligi sir emas. O'qishlar davrida umummilliy va ellararo darajada tan olingan olimlarimizning har kungi chiqishlarida ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyotimizga oid dolzarb masalalar yoritib berildi, yoshlar shunchaki tinglovchi bo'lib qolmay, ularni tahlil etish, xulosalar yasashda faol ishtirok etdilar.

(Davomi 5-betda)



DANG'ARADA YURAGIMIZ VA «QAND»IMIZGA DAVO BOR

Yurak ishemik va qandli diabet dunyoda eng ko'p tarqalgan kasalliklardan bo'lib, bunday bemorlar oxir-oqibat jarrohlik yo'li bilan davolanadilar... Bu yo'l bilan davolanganlarga esa kasallik qaytalanmasligi uchun muntazam ravishda profilaktik muolajalar olishlari tavsiya etiladi.

Dang'ara tumanida joylashgan «Muxtorjon va Xayrixon» sihatgohi Farg'ona viloyatida ishemik, qandli diabet va shu turdagi xastaliklarga ixtisoslashgan yagona maskan bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar chindan ham e'tiborga molik.

5 VAZIRDAN «KREATIV» G'OYA

«Times» nashri xabariga ko'ra, Britaniya Tashqi ishlar vazirligi rasmiylarga Xitoy, Rossiya, Shimoliy Koreya va Eronga nisbatan «dushman davlat» atamasini qo'llashni taqiqlab qo'ydi.




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar. Davlatimiz rahbari har doimgidek samimiy mehmondo'stlik uchun Ozarbayjon yetakchisiga minnatdorlik bildirdi.

HAMKORLIK

O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON HAMKORLIGINING YANGI DAVRI BOSHLANMOQDA

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-avgust kuni rafiqasi hamrohligida davlat tashrifi bilan Boku shahriga keldi.



Haydar Aliyev nomidagi aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi. Ma'lumki, O'zbekiston va Ozarbayjon – tili, an'ana va urf-odatlari bir-biriga juda o'xshash do'st mamlakatlardir. Bu do'stlikning ildizlari esa uzoq tarixdan quvvat oladi. «Avesto» kitobi ikki elning mushtarak yodgorligi sanaladi. O'zbek va ozarning bayrami – Navro'zi bir. Xalq og'zaki ijodining nodir durdonalari – «Go'ro'g'li», «Oshiq G'arib», «Dada Qo'rqut» dostonlari esa azaliy qardoshlikning ildizlari haqida yanada teran so'zlaydi. Ularning san'ati, musiqasi hamohang. Shu jihatdan ham bu ikki xalq vakili so'zlashganda tilmochga o'rin qolmaydi.

Keyingi yillarda bu azaliy birodarlik, o'zaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki mamlakat yetakchilarining siyosiy irodasi, uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati, hech mubolag'asiz, do'stlik aloqalariga yangi ruh bag'ishladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Boku shahriga kelgach, Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev mangu qo'nim topgan Faxr xiyoboniga tashrif buyurdi. Qayd etish joizki, Haydar Aliyevning mustaqil Ozarbayjonda barpo etish va mustahkamlash yo'lidagi xizmatlari beqiyos. Mamlakatning jadal rivojlanish davri va xalqaro maydondagi nufuzining yuksalishi ham aynan uning nomi bilan bog'liq. Qardosh o'zbek xalqi bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan Haydar Aliyevni yurtimizda yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda uning yuz yillik yubileyi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan pochta markalari chop etilib, turli madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar o'tkazilgan. Toshkentda Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi nomidagi ko'cha, unga bag'ishlangan xiyobon va yodgorlik ham ochildi. Shavkat Mirziyoyev buyuk davlat va siyosat arbobi Haydar Aliyev qabriga gul qo'yib, xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Shundan so'ng, Davlatimiz rahbari Boku shahridagi Shahidlar xiyoboniga bordi. Ozarbayjon poytaxtining qoq markazida joylashgan ushbu yodgorlik majmuasida mamlakat ozodligi va hududiy yaxlitligi yo'lida qurbon bo'lgan yurt qahramonlari dafn etilgan. O'zbekiston yetakchisi yodgorlikka gulchambar qo'yib, Ozarbayjon vatanparvarlari xotirasiga ehtirom ko'rsatdi. Shundan keyin, «Zug'ulba» qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasman kutib olishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. O'zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasi samimiy qarshi oldi. Qarorgoh maydonida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordirdi. Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar. Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng, Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev tor doirada uchrashuv o'tkazdilar. Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Prezidentiga tashrif bilan kelish taklifi hamda O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi. Yetakchilar O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish yuzasidan fikr almashdilar. Parlamentlar, hukumatlar, hududlar, tashqi siyosiy va boshqa idoralar, tahliiy doiralar o'rtasidagi aloqalar faollashgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur'atda oshib bormoqda. Qo'shma korxonalar soni 4 barobarga ko'paydi. Ozarbayjonda O'zbekiston avtomobillarini yig'ish, ipakchilik

va to'qimachilik klasterlari tashkil etilgani ham samarali hamkorlikka misol bo'la oladi. Tashrif arafasida o'tkazilgan biznes-forum natijasida esa yangi kooperatsiya loyihalari va savdo shartnomalarining salmoqli to'plami shakllantirilganini alohida ta'kidlash joiz. O'zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari energetika, mashinasozlik, metallurgiya, shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalar, to'qimachilik, ipakchilik, farmatsevtika, elektrotexnika va boshqa

qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari dini bir, qadriyatlari, an'analari, tili va madaniyati o'xshash bo'lgan xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda eng yuksak darajaga ko'tarilganini qayd etdilar. O'zbekiston rahbari Ozarbayjon xalqini atqli davlat arbobi, umummilliy yetakchi Haydar Aliyevning 100 yillik yubileyi bilan ham muborakkob etdi.

doirasida qo'shma logistika kompaniyasini tashkil etish hamda Boku shahri va uchinchi mamlakatlar portlarida omborxonalar infratuzilmasi va logistika markazlarini barpo etish choralarini muhokama qilindi. Madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator kelishuvlarga erishildi, shu jumladan, Madaniyat va kino kunlari, ijodiy va ilmiy ziyolilar, yoshlar tashkilotlarining uchrashuvlarini o'tkazishga kelishib olindi. Yig'ilish davomida tashqi siyosiy idoralar rahbarlari, Hukumatlararo komissiya hamraisilari, transport va energetika, qishloq xo'jaligi va madaniyat vazirlarining muzokaralar kun tartibi yuzasidan hisobotlari ham eshitildi. Yakunda davlat rahbarlari qo'shma «yo'l xaritasi»ni tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini ta'sis etishga topshiriq berdilar. Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida Oliy davlatlararo kengash tashkil etish to'g'risidagi shartnomani ham imzoladilar. Bundan tashqari, tashrif doirasida davlatlar, hukumatlar va idoralar darajasida 15 ta hujjat qabul qilindi. 2023 – 2024-yillarda har tomonlama strategik sheriklikni chuqurlashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi», energetika sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida, yoshlarga oid siyosat va sport sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, Media sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritasi» shular jumlasidandir.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz yetakchisi Qorabog'da tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etib, bu yerda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining ko'lami va sur'atini yuqori baholadi. Muzokaralar natijalari katta mamnuviyat bilan qayd etildi. Ularda ko'p qirrali hamkorlikning barcha masalalari muhokama qilindi. – O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida hech qanday muammoli masalalar yo'qligini ta'kidlash joiz. Biz qardosh xalqlarimiz manfaatlari yo'lida katta salohiyatdan samarali foydalanishning yangi imkoniyatlari va mexanizmlarini izlash dolzarb ekaniga urg'u berdik, – dedi Davlatimiz rahbari. O'zbekiston va Ozarbayjonning Oliy davlatlararo kengashini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolanganini ikki tomonlama munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berishi ta'kidlandi. Oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida ko'p qirrali sheriklikning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi. Davlat rahbarlari savdoni ko'paytirish, sanoat kooperatsiyasi va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor berdilar. Avtomobilsozlik, metallurgiya, energetika, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, to'qimachilik, turizm va boshqa tarmoqlardagi yirik loyihalar muhokama qilindi. Shuningdek, yangi logistika zanjirlarini rivojlantirish va infratuzilmani barpo etish, yuk tashish hajmini ko'paytirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning yana bir drayveri sifatida ikki mamlakat hududlarining imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solinadi. Hokimlar, ma'muriyatlar rahbarlari yangi kooperatsiya loyihalari va gumanitar almashinuvni ilgari surish uchun joylarda muntazam uchrashadilar. Muzokaralarda madaniyat sohasidagi aloqalar alohida e'tibor qaratildi. Yaqinda Ozarbayjonda O'zbekiston madaniyat kunlari katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. Ushbu tadbirlar doirasida Boku da o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Abdulla Qodiriyning ozarbayjon tiliga tarjima qilingan «O'tkan kunlar» romanining taqdimoti bo'lib o'tdi. Madaniyat va kino kunlari, ijod va ilm-fan arboblarining uchrashuvlari muntazam o'tkazib boriladigan bo'ldi. Joriy yilda O'zbekistonda birinchi O'zbekiston-Ozarbayjon yoshlar forumi tashkil etildi. Yetakchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, MDH, YEXHT, Qo'shilmaslik harakati va boshqa ko'p tomonlama institutlar doirasida ham samarali muloqotni davom ettirishga ahdlashib oldilar. – Bugungi muzokaralar strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga intilishimiz qat'iy ekanini yana bir bor namoyish etdi. Sa'y-harakatlarimiz aniq natijalarga qaratilgan, – dedi O'zbekiston Prezidenti so'zining yakunida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmoqda.

2023 – 2024-YILLARDA HAR TOMONLAMA STRATEGIK

sheriklikni chuqurlashtirish bo'yicha «yo'l xaritasi», energetika sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida, yoshlarga oid siyosat va sport sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, Media sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritasi» shular jumlasidandir.

tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish istiqbollarini ham muhokama qildilar. Qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish maqsadida O'zbekiston – Ozarbayjon investitsiya kompaniyasining samarali faoliyatini ta'minlash muhimligi qayd etildi. Uchrashuvda transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'rta koridor orqali yuk tashishni ko'paytirish, logistika va portlar infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi. Prezidentlar hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, yangi kooperatsiya loyihalarni birgalikda ishlab chiqish va ilgari surish uchun ikki mamlakat hududlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini tashkil etish muhimligini qayd etdilar. Tomonlar madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish, ta'lim va fan sohasida qo'shma dasturlarni amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ham bildirishdi. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish borasida sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimligi ham ta'kidlandi. Shuningdek, davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan fikr almashdilar, ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida faol muloqot va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish masalalarini muhokama qildilar. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning muzokaralari ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi. Unda O'zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va ko'p

Prezidentlar kuni kecha ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida o'tgan biznes-forum yakunlarini yuqori baholaganlarini aytish joiz. Savdo va sanoat kooperatsiyasida jadal o'sish kuzatilayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Yaqin yillarda uchinchi mamlakatlardan qimmat importning o'rmini milliy ishlab chiqaruvchilarning arzon va sifatli mahsulotlari bilan bosish orqali tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ham ko'rsatib o'tildi. Sanoat kooperatsiyasi xususida so'z berar ekan, Prezidentlar energetika, metallurgiya, foydali qazilmalar, mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo'yicha qat'iy kelishuvlarga erishilganini olqishladilar. Bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun esa qo'shma Investitsiya jamg'armasi mablag'larini faol o'zlashtirish muhimligi ta'kidlandi. Hududlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xususan, ularning sanoat salohiyatini hisobga olgan holda yangi kooperatsiya loyihalarni ilgari surish uchun hududiy ma'muriyatlar rahbarlarining to'g'ridan-to'g'ri muloqoti va muntazam uchrashuvlarini yo'lga qo'yish g'oyasi qo'llab-quvvatlandi. Yetakchilar transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish strategik jihatdan muhimligini ham qayd etdilar. O'tgan yilda O'zbekiston yuklarini Boku porti orqali tashish hajmi qariyb ikki barobarga oshdi. Mamlakatimiz bundan buyon ham Ozarbayjonning zamonaviy transport tarmog'idan foydalanib, yuk tashishni ko'paytirish niyatida. Shu ma'noda, Transkaspiy yo'lagi



Jamshid QOSIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

ENDI «SOYADA» ISHLASHNING VAQTI O'TDI

yoki parlament dolzarb vazifalar uchun mas'ul ekanini unutmasligi kerak



Sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir», degan so'zlari yurtimizda tadbirkorlarga azaldan yuqori e'tibor bo'lganidan dalolatdir. Chunki bu soha vakillariga barcha zamonlarda ham mamlakat tayanchi, xalq farovonligini ta'minlovchi kuch sifatida qaralgan. Ishning ko'zini bilganlar doimo qadrlangan, ularga zarur shart-sharoit yaratish choralarini ko'rilgan.

amalg oshirilmogda. Natijada 2023-yil o'tgan yetti oyi davomida tadbirkorlar faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar soni 63,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning

tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetgani ham aytiladi. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko'payib, 1,5 mingtani tashkil etgan. Berilgan yengilliklardan

Global innovatsion indeksda O'zbekistonning o'rni 2015-yilga nisbatan 29 pog'onaga yaxshilanib, 131 ta mamlakat orasida 93-o'ringa, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa 4-o'ringa qayd etildi. Umuman, mamlakatimiz keyingi yillarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlatdan bir sifatida e'tirof etilmogda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham tadbirkorlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida esa keyingi yetti yilda iqtisodiyot hajmini ikki barabarga oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Xususan, YAIM hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga hisoblanadigan daromadlarni 4 ming dollarga yetkazishdek juda katta marra olindi. Albatta, bu ulkan maqsadlarga erishish oson bo'lmaydi. Ammo qayd etish joizki, aniq hisob-kitoblari, real imkoniyatlar borligi va

bunda shubhasiz tadbirkorlar, ya'ni biznes vakillarining o'rni muhimligi aytilyapti. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida kichik tadbirkorlarning «oyoqqa turib olishi» va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlar joriy qilinishi ma'lum qilindi. Xususan, «Qishloq qurilish banki» «Biznesni rivojlantirish banki»ga aylantirilishi, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazlari tashkil etilishi aytiladi. Ta'kidlanishicha, ushbu Markazlar tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb etadi. Tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi. Albatta, mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan bunday xayrli tashabbuslar avvalo, yurtimizda inson qadri ulug'lashdek ulug'vor g'oya hayotiyiligini ta'minlashga qaratilgandir. Qonunchilikka mas'ul bo'lgan biz deputatlar esa belgilangan vazifalar ijrosini so'zsiz bajarilishini nazorat qilishga mas'ul ekanimizni aslo



2023-YIL O'TGAN 7 OYI DAVOMIDA TADBIRKORLAR faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar soni 63,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39 foizga kamaydi.

Yangi O'zbekistonda ham ushbu soha mamlakatimiz iqtisodiyotining qon tomiriga aylandi va uni rivojlantirishga halqat berayotgan barcha to'siqlar olib tashlanmogda. Tadbirkorlarni haqiqiy ma'noda ham iqtisodiy, ham huquqiy jihatdan himoyalovchi qonunchilik mexanizmlari shakllantirildi va u tobora takomillashtirilyapti. Soliq, bojxona, logistika bilan bog'liq ko'plab imtiyozlar berildi. Eng asosiysi, tadbirkorlarning tinkasini qurigan noqonuniy tekshirishlarga barham berildi. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga davlat organlari tomonidan asossiz aralashuvlarning oldini olish, nazorat qiluvchi organlar mas'uliyatini oshirish va faoliyatini ochiqlikni ta'minlash yo'nalishida tizimli ishlar

mos davriga nisbatan 39 foizga kamaydi. Tekshirish tartibini buzgan nazorat organlarining 918 nafar mansabdor shaxslari ma'muriy javobgarlikka tortildi, 69 nafariga esa intizomiy jazo choralari qo'llanildi. Prezidentimiz 18-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqotlarida ham joriy yilning olti oyida o'tkazilgan tekshirishlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foizga kamaygani, natijada tadbirkorlarimiz to'g'ri ishlash «soyada» ishlashdan ko'ra afzal ekanini tushunib yetayotganini bejiz ta'kidlamadilar. Shuningdek, uchrashuvda o'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko'payib, 490 mingga, o'rta

foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetib, 2017-yilga nisbatan 3 barabarga ko'paygan. Agar kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yillarda atigi 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich qariyb 55 foizga ko'tarildi. Ish bilan band bo'lgan aholining aksariyat qismi ham aynan shu sohada xizmat qilmogda va bugungi kunda yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining 90 foizi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelyapti. Ushbu yo'nalishdagi xalqaro reytinglarda ham yil sayin yuqorilayapmiz. Jumladan,

AYOL SIYOSAT

«EMAS OSON BU MAYDON ICHRA TURMOQ...»

Xabaringiz bor, partiya Markaziy kengashi «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan «Siyosatga marhamat» loyihasi doirasida deputat ayollar ishtirokida mahorat darslari o'tkazilmogda. Loyihamizning navbatdagi mehmoni xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashi deputati Dilfuzaxon Iminjonova bo'ldi.



– Siyosatga qachon kirib kelgansiz?
– 2008-yilda edi adashmasam. O'shanda partiyalar birlashganidan keyin «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tuman Kengashi raisligiga saylangandim. Faoliyatim mobaynida xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, salohiyatli deputat ayollar safini kengaytirishga harakat qildim. Bu borada ochig'i, ma'naviyat sohasida orttirgan tajribamga ko'proq tayandim. Bugungi kunda partiyamiz ayollaridan 1 nafari viloyat, 5 nafari tuman Kengashi deputati sifatida faoliyat olib bormogda.

– Siyosatda ayollarning o'rnini qanday baholaysiz?
– Xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashidagi 30 nafar deputatning teng yarmi ayollar. Ularning bir necha nafari Kengashlar qoshidagi doimiy komissiyalar raisi sifatida ham faoliyat yuritishyapti. Faol, uyg'ok, shijoatli ayol deputatlarimiz mehnatlari tufayli tumanimizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati tobora ortib, aholi muammolari mahalla yoki tuman kesimida ijobiy yechimini topmogda.

– Saylovlar jarayonida deputatlikka nomzod sifatida biror muammo yoki to'siqlarga duch kelganmisiz?
– Men tumanimizdagi birinchi direktor ayolman. Nomzodimni

jihatdan tayyorlab bordim. Hozirda partiyamiz tuman Kengashida deputatlar soni bo'yicha ikkinchi o'rindamiz.

– Saylovlarda g'alaba qozonishga oid tavsiyalariniz...

– Biz saylov o'tgan kunning ertasigayoq galdagi saylovlarga tayyorgarlikni boshlashimiz kerak. Partiyamizning «XXI asr ayoli», «Siyosatchi ayol», «Deputat va yoshlar», «Deputat bilan yuzma-yuz» kabi motivatsion loyihalar natijasida bugun deputat ayollarga havas qilayotgan xotin-qizlarimiz safi kengayib borayotgani quvonarli hol, albatta. Lekin bu loyihalar kam, ushbu loyihalar mohiyatini eng quyi bo'g'inlarda yanada ko'proq targ'ib qilishimiz kerak. Yana bir gap. Biz ayollar orasidan yosh deputatimiz Ruxshona Rustamova kabi fikri teran, nutqi ravon, maqsadi aniq nomzodlarni saralab, «Ustoz-shogird» an'anasi asosida deputatlikka tayyorlab borishimiz lozim. Nomzodning Saylovoldi dasturida o'z muammolari yechimini ko'ra

olgan saylovchigina unga ovoz beradi, qo'llab-quvvatlaydi.

– Siz havas qilgan siyosatchi ayol kim?

– Men Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatidagi barcha deputat ayollarga havas qilaman. Senatning Yalpi majlislarida ishtirok etib, deputat ayollarimizning salohiyatiga, xususan, Tanzila Norbayevaning tizimli boshqaruv qobiliyatiga ko'p bora guvoh bo'lganman. Shuningdek, senatorimiz Matluba G'aniyeva, faol, lider ayollarimiz Manzura Igamova, Sardorxon Mametovalar faoliyatini doimo kuzatib boraman.

– Deputatlik faoliyatingiz davomida qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritga oldingiz? Ijtimoiy tashabbuslaringiz bilan o'rtqolashsangiz.

– Hududimizda ayollar bandligini ta'minlash maqsadida har bir deputat o'z hududidagi ishsiz ayollarni kasb-hunarga o'qitish ishlarga bosh-qosh bo'ladi va ko'plar asosan, «Zumrad tekstil»

korxonasiga ishga joylashtirildi. Meni bir masala ko'p o'ylantiradi: masalan, tuman Kengashi kotibiyatida 8 ta doimiy komissiya bo'lib, ularning raislari jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi. Ma'lumki, har bir deputatning asosiy ish joyi bor. Ammo shunga qaramay, o'z ishidan ortib, doimiy komissiyada ko'tarilgan masalalar bilan shug'ullanishlari lozim. Ana shu jihatlarni inobatga olib, Oliy Majlis Senatiga qonunchilikda doimiy komissiya raislariga oylik maosh tayinlanishini belgilashga oid taklif kiritganman.

– Deputatlarining yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?

– Tan olishimiz lozim, aqlli, bilimdon, zakiy yoshlarimiz juda ko'p. Men ayta olmagan gaplarni yoshlar aytaypti, bizning hayolimizga kelmagan fikrlarni ular bildirishyapti. Prezidentimiz bejiz yoshlarga yuksak ishonch bildirmayaptilar. Partiyamiz raisi Alisher

Qodirovning fikrlari asosli, hayotbaxsh ekanligini bugun ko'pchilik tan olmogda, ilg'or tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamogda. Buni partiyaning Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarning aksariyati amalga oshayotgani ham isbotlab turibdi. Partiyamizdan saylangan har bir deputat eng avvalo, Saylovoldi dasturimizda belgilangan vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim. Bir so'z bilan atfganda, bir maqsad, bir g'oya atfrodida jiplashishimiz kerak.

– Oila siyosatdagi ayol uchun kuchmi yo to'siq?
– Pensiya chiqqanimga 5 yil bo'ldi. Lekin hamon siyosiy faoliyat maydonidaman. «Partiyasi «Mo'tabar ayol» qilgan nomzodni bu lavozimga tayinlab, adashmabmiz», deyshiyapti meni rahbarlikka tayinlaganlar. Oilam madad bo'lyaptiki, shunday natijalarga erishib kelyapman.

Loyiha kordinatori
Feruza JALILOVA

✓ Kuting!




7 NAFAR BOLA NOM-NISHONSIZ YO'QOLGAN

95 BOLANING 77 NAFARI «YOSHLAR DAFTARIDAGI» KIRITILMAGAN...

Feruza MUHAMMEDJANOVA o'rganishlar natijasiz qolmaganini, Sirdaryo viloyati hokimi Akmaljon Mahmudaliyevning tavsiyasi bilan Baxt shahridagi Respublika o'g'il bolalar o'quv tarbiya muassasasi faoliyati haqidagi masala viloyat kengashi sessiyasiga kiritilishi «Milliy tiklanish» rejalarini hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat ekanini ta'kidladi. Biroq...



Kelgusi sonlarda



O'tgan 6 oy davomida partiya «Yoshlar qanoti» tomonidan 20 dan ortiq tadbirlar o'tkazildi. Shu yilning olti oyida «Xizmat-beminnat» loyihasi doirasida jami 23 ta bepul o'quv kurslari tashkil qilinib, ularda 60 dan ortiq yoshlarning hunar o'rganishi ta'minlandi. «Uyma-uy» loyihasi doirasida 29 ta xonadonga tashrif buyurilib, yoshlarning holidan xabar olindi.

BURCHIMIZ

QORAQALPOQ YOSHLARI OLDINGI SAFDA



Istiqlol shubhasiz, biz uchun o'z taqdirimizning haqiqiy egasi bo'lish, qadr-qimmatimizni anglash, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratib berdi.

Istiqlol yillari erishilgan yutuq va qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni sarhisob etsak, mamlakatimizning barcha hududlari singari Qoraqalpog'istonda ham mislsiz o'zgarishlar yuz berganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, so'nggi yillarda qoraqalpoq yoshlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor va imtiyozlarni alohida e'tirof etish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan, Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha yo'nalishlarini belgilaydigan Farmon va Qarorlar, ularning faol ijrochisi bo'lgan yurtdoshlarimiz, ayniqsa,

yoshlarimizning turmush tarzini kundan-kunga o'zgartiryapti.

Jumladan, joriy yilning dastlabki yarim yilida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida 8 ming 262 nafar yoshlarning biznes loyihalari uchun 156 mlrd. 767 mln. so'm kreditlar ajratildi. 32 ming 171 nafar yigit-qiz «Yoshlar daftari»ga kiritilib, ularning 9 ming 207 nafariga amaliy yordam ko'rsatildi. Kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari va subsidiyalari ajratish natijasida 2 ming 558 nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi, 6 ming 649 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning muammolari doimiy nazoratga olindi.

Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan shimoliy tumanlarda doimiy yashovchi, boquvchisini yo'qotgan yoki nogironligi bo'lgan hamda professional yoki oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarning to'lov-kontrakt summasini to'lab berishda ham qator imtiyozlar berildi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi ham yoshlarni qo'llab-quvvatlashni o'zining ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Bu borada partiya Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi «Yoshlar qanoti» tomonidan iqtidorli yoshlarni

qo'llab-quvvatlash yuzasidan har xil intellektual tanlovlar, forumlar, tadbirlar, sportchi yoshlar uchun esa sport musobaqalari tashkil qilinmoqda.

Jumladan, o'tgan 6 oy davomida partiya «Yoshlar qanoti» tomonidan 20 dan ortiq tadbirlar o'tkazildi. Shu yilning olti oyida «Xizmat-beminnat» loyihasi doirasida jami 23 ta bepul o'quv kurslari tashkil qilinib, ularda 60 dan ortiq yoshlarning hunar o'rganishi ta'minlandi. «Uyma-uy» loyihasi doirasida 29 ta xonadonga tashrif buyurilib, yoshlarning holidan xabar olindi. Ularning murojaatlariga ko'ra, 15 nafardan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, 10

nafarga yaqin yoshlarga imtiyozli kredit olishda yordam ko'rsatildi.

Eng muhimi, bugun qoraqalpoq yoshlari davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanib, Vatanimiz rivoji va mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib, bu borada eng oldingi qatorda bo'lishiga harakat qilishmoqda. Zero, Mustaqilligimizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir!

Tajibay ROMANOV,
 partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi raisi,
 Jo'qorg'i Kengedagi partiya fraksiyasi rahbari

ZAMONAVIY TIBBIYOT

DANG'ARADA YURAGIMIZ VA «QAND»IMIZGA DAVO BOR

YOXUD OLIY MAJLIS HUZURIDAGI NNT VA FUQAROLIK JAMIYATINING BOSHQA INSTITUTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI MABLAG'LARINI BOSHQARISH BO'YICHA PARLAMENT KOMISSIYASI A'ZOLARI E'TIBOR QARATISHLARI ZARUR BO'LGAN MASALA XUSUSIDA MULOHAZA



Yurak ishemik va qandli diabet dunyoda eng ko'p tarqalgan kasalliklardan bo'lib, bunday bemorlar oxir oqibat jarrohlik yo'li bilan davolanadilar... Bu yo'li bilan davolanarlarga esa kasallik qaytalanmasligi uchun muntazam ravishda profilaktik muolajalar olishlari tavsiya etiladi. Dang'ara tumanida joylashgan «Muxtorjon va Xayrixon» sihatgohi Farg'ona viloyatida ishemik, qandli diabet va shu turdagi xastaliklarga ixtisoslashgan yagona maskan bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar chindan ham e'tiborga molik.


YANGICHA DAVOLASH USULI
 AQSH, Yevropa, Isroil, Rossiya, Ukraina va Qozog'iston tibbiyotida keng qo'llanilayotgan to'liq zarba yordamida yurak mushaklarida yangi kapillyar tomirlar hosil qilish usuli (udarno-volnovaya revaskulyarizatsiya miokarda)

Y Jarrohlik yo'li bilan amalga oshiriladigan aortokoronaroye shuntirovaniye muolajasi o'rtacha 15 000 (o'n besh ming) AQSH dollariga tushmoqda va asosiysi, jarrohlik muolajasini ko'pchilik bemorlarimizning salomatligi ko'tara olmaganligi sababli uni amalga oshirishga bo'lgan talab kamayib boryapti.

biz so'z yuritayotgan sihatgohda qo'llanilmoqda. Bu noinvaziv usul bilan davolanar 35 ta bemordan 90 foizdan ortig'ida ijobiy natija qayd etildi.

Xo'sh, 2010-yildan buyon tibbiyotda qo'llanilib kelinayotgan ushbu usulning afzalliklari nimada? Bu davolash usuli yordamida inson tanasining ma'lum joyiga to'liq zarba yuboriladi va o'sha zahotiyoq tomirlarning ichki qavatida oksid azot ajrab chiqish jarayoni boshlanadi. Shundan so'ng tomirlar kengayib, qon bilan ozuqalanish yaxshilanishi hisobiga bemor salomatligi tezda normal holatga kela boshlaydi. Amaliyotda uch oylik muolajadan so'ng yurak mushaklari, shu jumladan, qon yetishmasligi natijasida xastalangan kesimlarda yangi kapillyar qon tomirlar paydo bo'ladi va bu holatni tibbiyotda terapevtik angiogenez deyiladi. Albatta, bu usul bilan nafaqat ishemik yoki qandli diabet, shuningdek, boshqa xastaliklarni ham davolash mumkinligi ta'kidlanmoqda. Shunga qaramay, hozircha ko'proq xirurgik muolajadan keyin xastalik yengillashmagan, dori darmonlardan ijobiy ta'sir ololmagan (refrakter stenokardiya) hamda qandli diabet

xastaligi bor ayrim bemorlardagina bu – noinvaziv usul qo'llanilmoqda. Ayniqsa, qandli diabet bilan xastalangan bemorlarda kechadigan yurak ishemik xastaligini davolashda yuqori natijalarga erishilayotganini aytish joiz. Chunki, bu toifadagi bemorlarda dori-darmonlar nafi juda kamligi, jarrohlik muolajalari bilan davolanar tomirlar ham ma'lum muddatlarda yana tezda to'silib qolishi kuzatilgan. Bundan tashqari, qandli diabet bilan o'rganar bemorlarda periferik tomirlari, oyoq tomirlari shikastlanishi ko'p uchraydi va shu asorat orqali nogironlik holatlari yuqori darajaga chiqadi. – Ammo ushbu usul yordamida, hatto yara paydo bo'lgan holatlarda ham ijobiy natijaga erishilmoqda, – deydi sihatgoh muassislaridan biri, «DDMItd» MCHJ bosh shifokori O'ktamjon Qurbanov. – Noinvaziv davolash usulining amaliyotda qo'llanilishi davrida qandli



...xorijdan Cardiospec tizimida qo'llaniladigan YER-5-A999 applikatorini ko'plab sotib olish, mutaxassis kadrlarni o'qitish va kerak bo'lsa, xorijlik shifokorlar bilan tajriba almashish kerak. Bir so'z bilan aytganda, shu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jamg'armalar orqali bemorlarni zamonaviy, yengil noinvaziv usul bilan davolanishlari uchun moliyaviy ko'mak zarur.

ya'ni, Isroil va Shveysariyada bo'lib, ushbu usulning O'zbekistonda keng tarqalmaganligining sabablaridan biri bu maxsus uskunaning nihoyatda qimmatligidir. Ikkinchidan, uskunamiz to'liqlik zarbani kontakt usulda organizmga o'tkazishni ta'minlaydigan qism (applikator) tez tugaydigan qism hisoblanadi. Uning 1 donasi 5-6 ta bemorni davolashga yetadi, xolos. Applikatorning yo'l xarajatlari bilan umumiy narxi 4000 AQSH dollariga tengdir. Ya'ni bu bir bemorga uch oylik davolash kursi bugungi kunda 11 000 000 (o'n bir million) so'mga tushadi, deganidir. Lekin, bu hozirgacha amalga oshirilayotgan davolash muolajalari bundan arzon, degani emas. Misol uchun, jarrohlik yo'li bilan amalga oshiriladigan aortokoronaroye shuntirovaniye muolajasi o'rtacha 15 000 (o'n besh ming) AQSH dollariga tushmoqda va asosiysi, jarrohlik muolajasini ko'pchilik bemorlarimizning salomatligi ko'tara olmaganligi sababli uni amalga oshirishga bo'lgan talab kamayib boryapti.

DAVOLASH ISHLARI VA MUAMMOLAR


Ayni paytda Dang'aradagi sihatgohda aynan Isroilda ishlab chiqirilgan «Cardiospek» uskunasi unumli foydalanilmoqda. Bunda davolash samarali natijalar berish bilan bir qatorda, bemorlar uchun tanaga zarar yetkazmaydigan usullar ichida eng arzoni va samaralisi bo'lib turibdi. Bu usul qo'llanilgan bemorlar nisbatan tez shifo topayotganlari sabab, hozirda ushbu muolajaga tavsiya qilingan yuzdan ortiq

bemorlardan murojaatlar tushgan va ular o'z navbatlari tezroq kelishini intiqlik bilan kutishyapti. Chunki, kasallikning qaytarib bo'lmas fazasini oldini olish va sog'lomlashtirishda ushbu usuldan samaraliroq yo'qligi aytilyapti. Ayni paytda klinikada ushbu yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash, kerakli ehtiyoq qismlarni olib kelish va boshqa tashkiliy masalalarni moliyalashtirish muammosi o'z yechimini kutmoqda. Klinika rahbarlari va shifokorlarning aytishicha, bu ishlar to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun 2-3 mlrd. so'm mablag' kerak. Shundagina loyiha bo'yicha kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shuni qayd etish kerakki, hozirgacha amalda qo'llanilayotgan ishemik va qandli diabet xastaligini davolash usullari bemorlardan katta mablag' talab etadi va har doim ham ijobiy natija beravermaydi.

Ana shunday holatlarning oldini olish uchun esa xorijdan Cardiospec tizimida qo'llaniladigan YER-5-A999 applikatorini ko'plab sotib olish, mutaxassis kadrlarni o'qitish va kerak bo'lsa, xorijlik shifokorlar bilan tajriba almashish kerak. Bir so'z bilan aytganda, shu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jamg'armalar orqali bemorlarni zamonaviy, yengil noinvaziv usul bilan davolanishlari uchun moliyaviy ko'mak zarur. Ma'lumotlarga qaraganda, Dang'ara tumani hokimi Oliy majlis huzuridagi NTT va fuqarolik institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament raisiga xat bilan murojaat qilib, ushbu masalada taqdim etilgan loyiha uchun mablag' ajratilishiga yordam so'ragan.

– Agar fondga taqdim etilayotgan loyihamiz ma'qullanib, ma'lum bir miqdordagi grant mablag'ini qo'lga kiritarsak, yuzlab bemorlarni dardiga shifo topish imkoni yaratilgan bo'lardi, – deydi «Muxtorjon va Xayrixon» MCHJ sihatgohi bosh shifokori Ravshan Namozov. Ha, chindan ham mablag' tanqisligi sababli zamonaviy uskunalar olib kelish va mijozlar talabi asosida ish yuritish hammaga ham nasib qilmayapti. Ammo Ravshan Namozov va O'ktamjon Qurbanovlarning aytishicha, 300 ming AQSH dollari evaziga keltirilgan «Cardiospek» uskunasi singari uning asosiysi qismlari ham bir kunmas, bir kun olib kelinadi. Faqat bunga vaqt kerak. Ammo vaqt degani hozircha bemorlar foydasiga ishlaymayapti...

Shoxida ESHONBOBOYEVA,
 «Milliy tiklanish» muxbiri



MOZIYSHUNOSLARNI birlashtirgan nuqta

Tadbirda Termiz davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Shopo'lat Shaydullayev «Turonning qadimgi davr tarixi» mavzusini butunlay yangicha qarash va ilmiy yondashuvlarda taqdim etdi. Chunonchi, Yer paydo bo'lgandan milodgacha ulkan bosqichda yurtimizda turmush qanday kechgani, o'zbek xalqi tarixida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo, shaharchilik va davlatchilikning paydo bo'lishi jarayonlari va rivojlanishi batafsil ochib berildi. Shuningdek, ma'ruzada o'zbek xalqining qadimgi tarixini o'rganishda arxeologiya fanining o'rni, bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar haqida ham so'z yuritildi.

Professor Sh.Shaydullayevning ma'ruzasi yuzasidan Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi Muzaffarbek Jonuzoqov shunday fikr bildirdi: «Ustozimiz ma'ruzada arxeologik topilmalar, manzilgohlar qoldiqlari va boshqa ashyolar ma'lum bir davr tarixini o'rganishda muhim moddiy manba ekanini ta'kidladi. Men mahorat darsidan shunday xulosaga keldimki, arxeologiya bu – qadimgi manzilgohlarni qazishlardan iborat fan bo'libgina qolmay, Turonning qadimgi davri tarixini o'rganishda tarix fanining muhim ma'lumotlar beruvchi asosiy yo'nalishlaridan biri ham ekan. Barcha oliy ta'lim muassasalarida arxeologiya fani mana shunday yo'sinda chuqur o'rgatilsa edi, qadimgi tariximizni yanada batafsilroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lardik».

Fanlar akademiyasi Arxeologiya markazi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tarix fanlari doktori, professor G'aybullab Boboyorov «O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida I–VII asrlar nimasi bilan qadrladi?» ma'ruzasi ham yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ustozning ilk o'rta asrlarda Turonda kechgan etnik jarayonlar, o'zbek xalqining bu davrdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jumladan, madaniy hayotiga oid ilmiy asoslangan yangi ma'lumotlari hech kimni befarq qoldirmadi. Buni Samarqand davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti Parvina Rahmonovaning taassurtolaridan ham bilib olish mumkin: «Ustozimiz G'aybullab Boboyorovning ma'ruzasida

o'sha davr tarixiga oid Turondagi yozma manbalarning katta qismi arablar bosqini davrida yo'q qilib yuborilganligi sababli, davr bo'yicha mutaxassislar arxeologik topilmalar, tangalar hamda xitoy, arab, arman manbalari asosida xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganilayotganligi ochiqdandi. Eftaliylar, kidariylar va xioniylarning milliy davlatchiligimizda tutgan o'rni, turkiy xalqlar antropologiyasi va etnogenezi, madaniy jarayonlar haqida ham yangi ilmiy ma'lumotlar berildi. Shu ma'noda ham ushbu mahorat darsi men uchun juda foydali bo'ldi».

Yozgi o'qishlar o'tayotganda buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligiga bag'ishlangan «Beruniy va uning izdoshlari» umummilliy ilmiy yig'ini ham bo'lib o'tdi. Unda Tarix institutida Abu Rayhon Beruniyning faoliyati hamda ilmiy merosi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy ma'ruzalari eshitildi. Chunonchi, tarix fanlari doktori Bahodir Musametov «Abu Rayhon Beruniyning fan falsafasi», tayanch doktorant Samariddin Nurmuhammedovning «X – XI asrlardagi siyosiy jarayonlarning Abu Rayhon Beruniy ijodiga ta'siri», kichik ilmiy xodim Javohir Azimqulovning «Abu Rayhon Beruniyning e'tiqodi» mavzusidagi ma'ruzalari ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilib berildi. Kichik ilmiy xodim Islom Bo'riyev ham Abu Rayhon Beruniyning aniq va tabiiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi haqida qimmatli fikrlarini bildirdi.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Dilnoza Jamolova «Turkiston jadidchiligi: mazmun-mohiyati, faoliyati, xorijiy aloqalari» mavzusida mahorat darsi o'tib berdi. Unda Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, faoliyati bosqichlari va yo'nalishlari, Turkiston taraqqiyparvarlarining xorijiy aloqalari haqida yangi va tahlil ma'lumotlar berildi. Shu o'rinda, yozgi o'qishlarning chet ellik qatnashchisi, Tarix institutida tajriba orttirayotgan amerikalik tadqiqotchi, Michigan davlat universiteti doktoranti Albert Charlzning e'tirofi e'tiborga



molikdir: «Yozgi o'qishlar davrida tashkil etilgan mahorat darslari orasida Dilnoza Jamolovanning ma'ruzasi menga eng foydalisi bo'ldi. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, ularning faoliyati yo'nalishlari, eski va yangi maktablar o'rnatilishi, Turkiston taraqqiyparvarlarining xorij bilan aloqalari juda sodda qilib tushuntirib berildi. Ma'ruza yuzasidan ko'plab savollar berildi. Masalan, o'zining «Gazeta va jurnallar chop etish jadidlarga nima uchun kerak edi?», savolimga ma'ruzachining «O'sha davrda bugungi kundagidek televizor, radio, internet, instagram, telegram va hokazolar bo'lmagan, jadidlarga o'z g'oyalari, maqsadlarini xalq orasida targ'ibot va tashviqot qilishida davriy matbuot minbar vazifasini bajargan», degan javobi men uchun juda foydali va qiziqarli bo'ldi. Shulardan kelib chiqib, mahorat darslari sifatini juda yuqori baholayman».

Yozgi o'qishlarga hozirda Sharjadagi Amerika universitetida professor bo'lib ishlayotgan tarix fanlari doktori Alisher Xolijorov ham taklif etilgan bo'lib, uning «Chet el loyihalarida qatnashish, ellararo ilmiy jurnallarda maqola chiqarish»ga doir mahorat darsi yosh tarixchilar tomonidan yuqori baholandi. Ayniqsa, olimning xorijda tahsil olib, o'z Vatani tarixining e'tirofi e'tiborga



Yozgi o'qishlar o'tayotganda buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligiga bag'ishlangan «Beruniy va uning izdoshlari» umummilliy ilmiy yig'ini ham bo'lib o'tdi. Unda Tarix institutida Abu Rayhon Beruniyning faoliyati hamda ilmiy merosi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy ma'ruzalari eshitildi.

tadqiq qilish yo'lidagi faoliyati barchaning e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ushbu mahorat darsi haqida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti Aziz Fayzullayev shunday fikr bildirdi: «Sharjadagi Amerika universiteti professori Alisher Xolijorov o'zbekistonlik bo'lgani, xorijda tahsil olib, nufuzli xalqaro universitetlarda dars berayotgani bilan biz yosh tarixchilarni o'ziga qaratdi. Mahorat darsi juda foydali bo'ldi. Amerikada doktorantura o'tash, xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish bo'yicha zarur ma'lumotlar oldim».

Tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabov va tarix fanlari doktori Muhayyo Isoqova tomonidan Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati, mustamlakachilik zulmi, unga qarshi ko'tarilgan xalq harakatlari, bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, faoliyati va tugatilishi, sovet hokimiyatiga qarshi milliy istiqlolchilik harakatlarining vujudga kelishi, qo'rboshilar faoliyati kabi masalalarga bag'ishlangan mahorat darslarini ham yoshlarimiz yaxshi qabul qildilar.

Shuning uchun ham Qahramon Rajabovning ma'ruzasi haqida Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti O'ktamali Ravshanovning fikrlari o'ziga xos bo'ldi: «Mahorat darsidan sovet hokimiyatining tashkil topishidan tanazzuliga qadar bo'lgan mustamlakachilik davri tarixi dalillar, misollar bilan aniq ko'rsatib berildi. Bundan tashqari, tarixchi o'z tadqiqoti doirasida chuqur izlanish olib borishi lozimligi, ma'lumotlarni soxtalashtirmasligi, o'z fikrlarida mustahkam turishi kerakligi bo'yicha maslahatlar berdi. Ustozning o'z eli, yurti, kasbini chin yurakdan sevishi, butun umrini ilmga bag'ishlab kelayotgani biz yoshlar uchun katta ibratdir».

Muhayyo Isoqovanning mahorat darsi haqida esa Toshkent shahri Yangihayot tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Muhammadrizo Hasanov shunday dedi: «Men Yosh tarixchilar 2-yozgi o'qishlarida ilk bor qatnashyapman. Bizga o'z sohasining yetuk mutaxassislari mahorat darslari o'tib kelmoqdalar.

Ulardan biri, tarix fanlari doktori Muhayyo Isoqova ma'ruzasida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi haqida muhim ma'lumotlar taqdim qilindi. Ustozimiz bu davrni o'rganishda asosan arxiv hujjatlaridan foydalanish kerakligi, ammo bu ma'lumotlarga ergashib ketib qolmaslik uchun tarixiy kitoblar, esdaliklar, xotiralar, tarixiy hujjatlar, yozishmalar hamda davriy matbuotdagi ma'lumotlarni ham o'rganish hamda qiyosiy tahlil qilish lozimligini uqtirdi. Ma'ruza men uchun juda foydali bo'ldi. Yangi o'quv yilida o'quvchilarimga ushbu yangi ma'lumotlarni, albatta, yetkazaman».

«Elshunoslikning o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni o'rganishdagi o'rni» masalasiga to'xtalgan tarix fanlari doktori, professor Adham Ashirov tinglovchilarga elshunoslik, antropologiya fanlarining o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini o'rganishdagi ahamiyatiga urg'u berib, ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borishning nazariy va uslubiy asoslari bilan tanishtirdi. Mahorat darsining ikkinchi qismida Tarix institutida tadqiqot olib borayotgan, Xitoyning Lanjou universiteti tadqiqotchisi Bay Ji xonim so'zga chiqib, tengdoshlari bilan Xitoydagi elshunoslik masalalarini o'rganilishiga oid tajribalarini bo'lishdi.

Jo'shqin kechgan tadbirning yopilish marosimida yosh qatnashchilar qisqa vaqt davomida olgan taassurotlarini so'zlab berdilar. Bu kabi o'quvlar har yili tashkil etilishi ular uchun faqat foydali bo'lishi, o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Yosh tarixchilarning bu galgi yozgi o'qishlari ham o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi, deb aytish mumkin. Yurtimizning turli hududlaridan kelgan yuzga yaqin yoshlarimiz tarix fanimizning kelajak vakillarini birlashtirish, ularni Yangi O'zbekistonimizga xos yangicha dunyoqarash, bilim va shijoat bilan qurollantirishdek og'ir, biroq sharaflil vazifani bajarishdan to'xtamaymiz.

Odiljon ZARIPOV,
Tarix instituti ilmiy kotibi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

XALQARO HAYOT

VAZIRDAN «KREATIV» G'OYA



«Times» nashri xabariga ko'ra, Britaniya Tashqi ishlar vazirligi rasmiylarga Xitoy, Rossiya, Shimoliy Koreya va Eronga nisbatan «dushman davlat» atamasini qo'llashni taqiqlab qo'ydi. Buning o'rniga «dushman o'yinchilar» iborasini ishlatish lozimligi tavsiya qilindi. Bundan tashqari, «dushman davlat faoliyati» kabi atamalar «davlat tahdidlari» iborasi bilan almashtirildi. «Davlatlar o'ziga xos dushman emas, ular shunchaki dushmanlik harakatlarini qiladilar», deb tushuntirildi. Nashr o'quvchilari ko'p o'tmay bunday qarorni masxara qilib yangi atamalarining ixtiro qilinishini yozuvchi Jorj Oruell kitoblaridagi yangi nutq bilan solishtirishga ham ulgurishdi.

7 NAFAR BOLANI O'LDIRGAN HAMSHIRA QAMALDI

Britaniyada yetti nafar chaqaloq o'limiga sababchi bo'lgan hamshira umrbodga qamalgani xabar qilinyapti. Bu Britaniya huquq tizimidagi eng og'ir hukm hisoblanadi. Hamshira Angliya huquqi tarixida umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan to'rtinchi ayol bo'ldi.

ROSSIYADA SIGARETLAR TAQIQLANADI


Garchi Rossiya spirtli ichimliklar iste'mol qilish va kashandalar soni bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatorida sanalsada, yaqinda mamlakat hukumati qaroriga asosan, 2024-yil 1-martdan boshlab mamlakatda xushbo'y hidli elektron sigaretalarni sotish taqiqlanishi mumkinligi muhokama qilina boshlandi. To'g'ri, bu qaror hozircha loyiha darajasida. Ammo bu qaror hozirdanoq keskin muhokamalarga sabab bo'lyapti.

TURK LIRASI QULASHDA DAVOM ETYAPTIMI?

Jahon ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, iqtisodiy nashrlar Turkiya milliy valyutasi antirekord qayd etishda davom etayotganini yoza boshlashdi. Qayd etilishicha, bugungi kunga kelib 1 AQSH dollarining qiymati 27,2 turk lirasiga teng bo'lib qoldi.



CHINDA BOLALAR INTERNETDAN CHEKLANADIMI?



Xitoy hukumati bolalar va o'smirlarni internetdan himoya qilishning o'ziga xos yo'lini topgani ta'kidlanayapti. Qayd etilishicha, hukumat tungi vaqtda bolalarni internetdan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'ymoqchi. Internet qaramligiga qarshi kurashish bo'yicha taklif qilingan yangi qoidalar ko'ra, bolalar va o'smirlarning telefonidan foydalanishga cheklov joriy qilinadi. 18 yoshgacha bo'lganlarga soat 22:00 dan 6:00 gacha mobil qurilma orqali internetdan foydalanish cheklanadi. Bundan tashqari, 8 yoshdan kichik bolalar uchun bir kunda telefonidan foydalanish vaqti ko'pi bilan 40 daqiqa, 16 va 17 yoshlilar uchun esa 2 soat foydalanish limiti va vaqtni nazorat qilish bo'yicha boshqaruv tizimi joriy qilinadi. 2-sentyabrdan kuchga kirishi rejalashtirilayotgan bu qoidalar hozir jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan.

SUV URUSHI

XXI asr ijtimoiy siyosatidagina emas, iqtisodiy hayotida ham kutilmagan voqealar ro'y bermoqda. Buni Qirg'izistonning Xitoy, Osiyo va hatto Yevropa davlatlariga chuchuk suv sotish niyatida ekanligini ma'lum qilganida ham ko'rish mumkin. Bu haqda mamlakat bosh vaziri Oqilbek Japarov Xitoyga tashrifi chog'ida e'lon qildi. Qirg'iziston hukumati rahbarining so'zlariga ko'ra, mamlakatda ichimlik suvi yetarli va u foydalanishga tayyordir. Mazkur bayonot Qirg'izistondan Qozog'istonga Shu va Talas daryolari bo'yab suv yetkazib berish to'xtatilishi fonida aytilganini alohida ta'kidlash joiz. OAVlarning yozishicha, ayni paytda Qozog'istonning ko'plab viloyatlarida ekinlar nobud bo'la boshlagan. Suv inqirozini hal qilish uchun esa intensiv muzokaralarga kirishilgan ham. Ayrim mutaxassislar suv ta'minotining to'xtatilishini Rossiyaning Qozog'istonga Qirg'iziston orqali bosimi oqibati, deb ham taxmin qilishyapti.

HINDISTON ROSSIYA BILAN «KELISHADI»

Reuters axborot agentligining xabar berishicha, Hindiston jahonda g'alla narxi oshib borayotgan bir paytda Rossiya g'allasini chegirma bilan import qilish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda. Xabarlariga ko'ra, Rossiya har tonna bug'doyga 25 dollardan 40 dollargacha chegirma berishi mumkin

Internet ma'lumotlari asosida Feruza XODJAYEVA tayyorladi.



У зур бир илтижо ва алам билан куёшга қаради. Куёш тиккага, атроф чароғон, еру осмон, тоғу тош қизигандан-қизир, ёлғиз кўнғир бургутгина совуккотаётган эгу.


МУТОЛАА

Бошланиши 1-бетда

Кўнғир бургут ҳам бошини ўша ёқларга бурди, бирор хавфдан тахликага тушгандек шоқич сузиб бораётган булут уюрларини, дарактзорни, бепоен дашту далани ўткир назаридан ўтказди. Зум ўтмай куёш бош кўтарари — юмронқозик, тошбака, типратиканлар инига кириб кетди, кўёнлар ғойиб бўлади. ...Кўнғир бургут олатда айни шу дамда овга отланар, офтоб чиқиб, олам баногоҳ чароғонлашиб кетишини сезмай, ғафлатда қолган жониворларни осонликча чангалга туширарди. Агар улар бироқ ўлжа ёхуд емишга қалгилган бўлса яна яхши — жониворларнинг ўзи кўнғир бургут тажовузига гирифтор бўларди. Тонг ғира-шира ёришиб, куёш қоядан кўтарилгунга қадар кўнғир бургут икки қайта овга бориб қайтар, мўлжаллаб туриб ерга бамисоли тошдек отилиши бесапар кетмас, у овдан ўлжасиз қайтиш нималигини билмасди. ... Оқ думли бургут тўшини тошга босиб чоғланди-чоғланди-да, енгил сакраб қанотини ёйганича қоядан паства шўнғиди. Кўнғир бургут бўйинини қисиб, хурпайди, кўзини юмди. Шамолнинг зўридан танаси чайқалиб, қайрилма тумшуги тошга тарақлаб тегди. У кўзини очиб панжаларига, ўсиқ орқа тирноғига қаради — тошни чангаллади.

Хуршид Дўстмухаммад

ҚОЯЛАР ДАН БАЛАНДА



Полапонлар бехосдан қаттиқ чағиллади. Кўнғир бургут хуркиб уяга қаради. Полапонларнинг қалта, сарғиш тумшуги, бесабр қоқилаётган заиф қанотчаларининг учлари кўринди. Уя шамол йўналишидан чеккада — совук оқимдан панада эди. Оқ думли бургут қанот қоқмай дашту дарактзор тепасида айлана бошлади, кўнғир бургут эса... кўзларини юмди. ... Ҳарчанд уринмасин, қанотларини йиға олмайди — у қайтариётган эди. ... Қоя тош — бахайбат, у на шамол, на иссиқ-совуқни писанд қилмай гўдаиб турар, биқинининг остидан зарра-зарра бўлиб емириляётганига ҳам бепарво эди. Кўнғир бургут билан қоя тош оралиғидаги яйдоқ бўз ерда бир неча тош дўнгликлар ер бағирлаб туртиб чиққан — бу, аллазамонлар шу ерларда залворли харсанглар бўлганидан, улар вақтининг бешафқат ва мутлак хумкига — тинимсиз шамол, иссиқ-совуқларга дош беролмай емирилиб-емирилиб зарра-ю тўзонларга айланганидан, ху-у жаҳаннам узра тўзиб-тўзиб кетганидан далолат беради. ... Энди бахайбат қоя тош ҳам йўқлик сари сафар бошлаган, унинг зарралари шамол аралаш кўнғир бургутга урилётган, паглар, парлари орасида илашиб-улоқиб силласини қуритаётган, лаҳза сайин мажозиланган адои таном қилаётган. ... тиркилик дунёсидаги насибаси одош бўлганидан қадар бераётган эди. ... вақт-бевақт қоялар тепасида шамол жазавога тушар, залворли тоғ ўрқачларини онтариб ташламоқчидек увиллар, шунда қоя тош ҳам дош беролмайди-дегандек, бир юмалаб тубсиз жарликка ағдарилиб кетадигандек туюлган кўнғир бургут паноҳ туола кўнғир бургут эса асов бўрон билан юзма-юз олишмоқчидек қанот ёйиб унга қарши борар, шамол уни дам ўнг, дам сўл тарафга итктиб ташлар, лекин бургут бўш келмасди. Жуфти ҳалолнинг шўнғилигидан саросимага тушган оқ думли бургут унинг ёнига отилиб борар, тахликадек «кёек-кёек»лаб уяга қайтар — уни уяга қорлар. ... кўнғир бургут эса шамолга бас келмоқчидек унга қарши учаварар-учаварар, толиқини нелгини билмасди. ... Кўнғир бургут ўзини шамолдан четга олиш учун панжасини тошдан узди, узди-ю, мункиб кетди, қанотиға тиралиб, хурпайди. Титроқ қанотида панжаларига, ундан тирноқларига оёғининг остидаги харсанг тошдек сарғайиб кетган, гўё тирноқлари тошга илдиз отгандек ёхуд оёқлари тошдан ўсиб чиқкандек ҳаракатсиз, жонсиз эди. Шу алфоз тошдан тўшини узолмаса, бошини кўтаролмаса, вассалом — қайтиб қаддини тутолмаслиги, ҳатто, ху-у жаҳаннамга ағдарилиши ҳеч гап эмасди. Лекин шу пайт қанотларининг ости... биқини. ... шу қадар совуктодики, бутун танаси музга айланаётгандек бўлди, қаттиқ хуркиди. Ҳали муз танасига таркаб улгурмай кўзини очди, бўйинини чўзди. Қанотларини йиғди. Жон саклаш сезими зўр келиб, уя томон оғир ва охишта

сурилди. У шу хурпайган кўйи икки кун уя ёнида тош қотиб турди. Дамбадам бўйинини чўзиб бесабр полапонларига узоқ термулар, аллақайларга учиб тўсатдан қайтган оқ думли бургутга тахдидли ва умидвор қарар, у эса чангалдаги ўлжани уяга ташлаган, дарҳол қайтиб чиқар ва «тўп-тўп» этиб сакраб кўнғир бургутга яқинлашар, атрофида айланар, айланаётиб қаноти билан уни беозор туртиб қўярди. Дастлабки кун кўнғир бургут ўзининг бемажол туришидан, оқ думли бургутнинг ғалати қилиғидан ғашланди, ҳатто, бир сафар унинг бўйиндан қаттиқ чўкиди. Кўнғир бургут танасида, қанотларидан тортиб панжалари, тирноқларига қандайдир номаълум, лекин қандайдир қўрқинчли ўзгариш юз бераётганини пайкамаган, зотан, доимо куч-қувват, шиддат-шижоат билан яшаган мавжудот учун бундай ҳолат беғовна ва мавҳум эди. Иккинчи кун у тонг отишини сарбсизланди кутди, осмон олачалпоқ ёриша бошлаганда унинг чоғланди-ю, уяда полапонларини бағрига босиб ётган оқ думли бургутни кўриб тайсалланди. Оқ думли бургут аллақандай нохушлиқни сезгандек безовта, беҳаловат ётар — у синовчан, айни чоғда ишончсиз бир назар билан кўнғир бургутни кузатаётган эди. Кўнғир бургут одатдагидек парвоз қилишга, бепоен дашт узра чарх уриб ўлжа излашга андек фурсат борлигини чамалади — осмонга бемаврид кўтарилиб, беҳуда мадор сарфлашдан ўзини тийди. ...У шу чоғга ҳеч қачон, ҳеч нарсадан ўзини тийган эмасди. Вужудда парвоз майли уйғониб, бу майл тўла истакка айланиб улгурмасиданок бир сапчишда қоядан шўнғир, қанотларини даст ёйиб осмонга фалакка кўтарилар, вазмин ва салобат билан сузиб борар экан шамол оқимлари, булут уюрлари, куёш нурларини тумшуги, кўзи, бўйни ва парларида, эту суяқларида хис қилар, худди шундай масрурлик ўзга бирор жониворга насиб этмаслигини билгандек витор-ла учаварар, учаварар, учаварарди. ... Энди эса ўлжа излаш учун лича фурсат борлигини чамалади, беҳуда куч сарфлашдан ўзини тийди. Шундангина у қанотида нотайин оғирлик пайдо бўлганини сезди. Оғирлик ҳали оғирликка айланиб улгурмаган эса-да, шу ўзгаришнинг ўзиёқ парвоздан тийишлишга ундаб улгурган, шунинг ўзиёқ қари бургутнинг шаштини қирқиб қўйганди. Кўнғир бургут емиш келтириш умидида икки қайта парвоз қилди, тоғ этаклари, дашту далалар узра айланди, ҳар бир даракт, бута остини ўткир илдиридан ўтказди, ҳар бир дўнглик, сойликда, ўнгирда қимирлаган жон излади. Омад чопмади. Янаги сафар ўлжа тополмагани етмагандай учиндан толиқди, баногоҳ қанотларидан мадор кетди — икки ёнига даст ёйилган кенг ва хайбатли қанотлари беғонадек туюлди ўзига — алхол узоқда кўриниб турган қоядаги ошнённини қора тортиб изига қайти. Қайтар чоғда бир тул юлғун панасида чўнкайиб ўтирган қулранг қуёни кўрди. Қўрган захоти қанотидаги оғирлиқни унутди. ...

Ҳозир биргина ўшандай лаҳза учун жонидан кечишга тайёр эди. ...у осмонга кўтарилгач, еру кўкнинг мутлак сохибқиронидек қанотларини тек тутиб салобат билан, қатта-қатта айлана ясаб парвоз этар, уяси жойлашган қоядан аллақайларга олислаб кетаверарди. Аксари юқорига йўл солар, юқорилагани сайин ер, дарактзор, сўнг тоғлар, қоялар ҳам кўринмай кетар, шунда қудратли қанотларида, боши ва бўйнида офтобнинг ёқимли хароратини туяр, тўши, биқини эса аксинча — муздек шабадалан беадал хузур топарди. У шамол оқимлари билан ўйнашгани-ўйнашган эди — иллик шамол қатламида учиб бора туриб тўсатдан тиккасига кўтарилар ёхуд паства шўнғир — баданига совук хаво

кўтармай оёкка турди. Оқ думли бургут яна устма-уст келиб урилишини у кутмаганди — кейинги зарбдан бояги — совук шамол гуриллаб эсаётган яйдоқ ялангликка бориб қолди. Кўнғир бургут қаршиллик кўрсатмади, полапонлар ёнига қайтган жуфтига қарамади ҳам — бошини қанотининг орасига яшириб хурпайди — яна қалтирай бошлади. Шу туришида у қорамтир-сарғиш дўнгликка ўхшар эди. ...аслида... оқ думли бургут қоянинг чеккасига келиб бирдан парвоз этар, кўнғир бургут хаёломдай унинг ортидан изма-из қанот қоқарди. ... оқ думли бургут тобора тезлашар, кўнғир бургут орқада қолмас, оқ думли бургутдан ўзиб кетар — қайтар, ўзиб кетар — яна қайтар, шунда гоҳ тепасидан, гоҳ остидан, гоҳ ёнидан

тўлгандан-тўлар, турган жойинда қанотларини елпигичдек ёйиб, солланиб юрар, ички бир майлга бўйсуниб куёш унинг хароратидан бахраманд бўлар. ... Ҳозир эса аксинча — офтоб тафти унинг қанотларини қимирламайдиган қилиб қотираётган, жонини суғуриб олаётгандек эди. Бири олиб бири қўйиб чуғурлашаётган полапонлар кўнғир бургут турган жойдан кўринмади, у тобора тиккага кўтариляётган куёшга қаради — сояси қичраётган қоя тош томон яқинлашди. Шу пайт орқада — уя деворида турган шергининг қанот қоққан шарпаси эшитилди. Кўнғир бургут ўша томонга бошини бурди — полапонларнинг сап-сарик, учли тумшугини кўрди. У қанотининг симиллаб зирқираётганини унутди. Қоя тошининг гўдир дўнгликларидан оғир ва базўр кўтарилгани сайин полапонларининг кўнғир-қорамтир боши, тийрак ва бежо кўзлари, пасти ниш уриб қота бошлаган қанотлари — ҳаммаси кўринаверди. ...шундай паллада у ўлжани уя ичига ташламай тош деворга босиб турар, ебтўймас полапонлари чуғурлаб дунёни бошига кўтарар, қанот қоқиб ўлжага буй чўзар, чўзаверар... сапчиб деворга тармашар, унинг устига чиқиб оларди ҳам. Кўнғир бургут ёнига чиқолган полапонини қанотларини беозоргина чўкилағач, ўлжани унинг ичтиёрига қўяр, лекин бирор лумка ютиб улгурар-улгурмас уни тўши билан туртиб ташқарига тушириб юборарди. Саросимада қолган полапон ёруғ дунёга ўгирилиб қарамас, балки кўнғир бургут оёғининг остидаги емиш илчиқла яна тош деворга тармашар, талпинар, талпинаверар... тош деворга қанот ёзиб чиқар... учирма фасли шундай бошланарди. ... Тобора зўриқайтган оғир кўнғир бургутнинг танасига ёқка бошлади, оғир кўнғир бургутнинг ўз мулкига айланганди. ... У қоя тошининг янада тепароғига чиқини кўзлади, таралдуллини қайтариб олаётгандек, оқибатда унинг ич-эти лаҳза сайин қахратонга айланаётгандек эди. ... Куёш чарқалаб нур сочар, кўнғир бургут унга аламоқ боқарди. ... Олам жимжит бўлиб қолди. ... Жимликни полапон — жужаларнинг дам-бадам ва якка-якка чағиллаши бузмокда. ... Кўнғир бургут сапчиб бош кўтарди... уяга қаради... Оқиш бошли жуға тош деворга мнингашиб учинишга талпинаётганини, икки кўнғир жуға тош деворга тармашаётганини кўрди... учиниш кўмасди. ... кўнғир бургут осмонга кўтарилар, учинишга талпиниб ўзини кузатаётган жужаларига қанот суякни, чарх уриш, шўнғиш ва паствашиш машқларини намойиш этар, учаварар, қоялар ортида кўздан йўқолар, бундан тахликада чуғурлай бошлаган учирмалари ёнида тўсатдан пайдо бўлиб қолар, уларни эркалаб қўкилаб қўяр... Ҳозир айни шундай учирма палласи эди. ... Кўнғир бургут учирма полапонларининг кўз ўнгидида лоқал бир кур осмонга кўтарилгиси, доира ясаб учгиси, қоялардан баландларда чарх ургиси келди. Чоғланди, чоғланди, чоғланди. ...

лаган тирноқларини, панжаларини бирма-бир қузатди — шу алфоз яна қанча фурсат тура олишини чамалади. Кўзидан нур аримаган бўлса-да, олисолисларда майсазордек ястаниб ётган қуюқ дарактзорга, тоғ этаклари, дашту далаларга, ҳатто, паға-паға булутлар сузиб юрган осмонга қарамас, қанот остларига, оёқларига, тош чангакка айлангандек қотиб қолган панжаларига узоқ-узоқ термулар, қандай ҳодиса юз бераётганини ҳамон тўла англаб етмаган, етмаган эса-да... уясини, ўзидан кўз узмаётган полапонларини интихосиз муңгли бир нигоҳ билан қузатарди. ... У бирдан шабада эсганини, иллик хаво қанотининг остига ёқимли урилганини илғамди — панжасига қўнган заррага қаради. Бу зарра шамолда емириляётган қоя тош заррасидан йирикроқ, ҳатто... жонлироқ эди. Кўнғир бургут панжасидаги зарранингни ўрмалаб тирноқлари остига яширинаётганини кўрди. Яна шабада эди, энди бургутнинг панжасида, тирноқларида ўрмалаётган зарралар қўпайди. Кўнғир бургут уларни чўкиб териб ташламоқчи эди, лекин ўзи аранг тармашиб турганидан бунга журъат етлолмади. Фақат шабада эсгани сайин тирноқлари, оёғининг момик пар қолган этигача зарралар зичлашаётганини, улар тобора жонлироқ гимирляётганини кўриб тахликаси ошди. Ўрмаловчи зарралар қанотининг оралирида, биқинида урчиётганини, дув-дув тўкиляётган бу кумурскаларини чўкиб адо қилиб бўлмастлигини у кейин сезди. ... Кўнғир бургут шу тонда энг майда кумурскадан ҳам ожизроқ эди. ... У зўр бир илтижо ва алам билан куёшга қаради. Куёш тиккада, атроф чароғон, еру осмон, тоғу тош қизигандан-қизир, ёлғиз кўнғир бургутгина совуккотаётган эди. Шу чоғга унинг баданига, вужуд-вужудига харорат бағишлаган офтоб энди бир умр ҳада этган тафту роҳатларини қайтариб олаётгандек, оқибатда унинг ич-эти лаҳза сайин қахратонга айланаётгандек эди. ... Куёш чарқалаб нур сочар, кўнғир бургут унга аламоқ боқарди. ... Олам жимжит бўлиб қолди. ... Жимликни полапон — жужаларнинг дам-бадам ва якка-якка чағиллаши бузмокда. ... Кўнғир бургут сапчиб бош кўтарди... уяга қаради... Оқиш бошли жуға тош деворга мнингашиб учинишга талпинаётганини, икки кўнғир жуға тош деворга тармашаётганини кўрди... учиниш кўмасди. ... кўнғир бургут осмонга кўтарилар, учинишга талпиниб ўзини кузатаётган жужаларига қанот суякни, чарх уриш, шўнғиш ва паствашиш машқларини намойиш этар, учаварар, қоялар ортида кўздан йўқолар, бундан тахликада чуғурлай бошлаган учирмалари ёнида тўсатдан пайдо бўлиб қолар, уларни эркалаб қўкилаб қўяр... Ҳозир айни шундай учирма палласи эди. ... Кўнғир бургут учирма полапонларининг кўз ўнгидида лоқал бир кур осмонга кўтарилгиси, доира ясаб учгиси, қоялардан баландларда чарх ургиси келди. Чоғланди, чоғланди, чоғланди. ...

СУВ ҲАВЗАЛАРИ ИФЛОСЛАНИШИ:

ЭКОЛОГИК ХАТАРДАН

ОГОҲ БЎЛИНГ!



ТУРИЗМ СОҲАСИДА ҲАМКОРЛИК

Қорақалпоғистон Республикаси бўйлаб Қозоғистон Республикасининг туристик корхоналари учун инфотур ташкил этилди. Делегация аъзолари Хўжайли туманидаги «Миздақхон» тарихий мажмуаси, Мўйнок туманидаги Очиқ осмон остидаги кемалар музейи, Ҳаким ота – Сулаймон Бокирғоний зиёрат мажмуаси каби бир қатор диққатга сазовор жойларда, шунингдек, Нукус шаҳридаги Игор Савицкий номидаги Қорақалпоқ давлат санъат музейи ҳамда «Еркосай ота» макбараси билан яқиндан танишди. Бугунги кунда Қорақалпоғистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлиги томонидан соҳани ривожлантириш туристик салоҳиятини кенг тарғиб этиш, хорижий туристлар оқимини жалб қилиш бўйича бир қатор кенг камровли, халқаро миқёсдаги чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Шулар қаторида маҳаллий туристик корхоналар вакилларининг Германияда ИТБ Берлин халқаро туризм ярмаркасида иштироки, Тошкент шаҳрида «Дестинацион Форум» халқаро туризм конференциясида худуднинг туристик салоҳияти тақдими, Италиянинг Уффици галереяси ва Игор Савицкий давлат музейи ўртасида меморандум тузилишини айтиб ўтиш лозим. Шунингдек, Ўзбекистоннинг Буюк Британиядаги туризм элчиси билан лойиҳаларнинг амалга оширилиши ҳамда ОАВ учун ташкиллаштирилган пресс-турларни алоҳида таъкидлаш керак. Бугунги кунда юртимизга Буюк Британия, Франция, Италия, Германия, Россия Федерацияси, Хитой, Япония, Ҳиндистон, Қозоғистон, Тожикистон ва бошқа кўплаб давлатлардан сайёҳлар ташриф буюрмоқда. Республиканинг туризм салоҳиятидан тўлиқ ва самарали фойдаланиш, биринчи навбатда, транспорт-логистика ва туризм инфратузилмасидаги муаммоларни тезкор ҳал этиш, шунингдек, мавжуд ресурслар ва имкониятлардан ҳар томонлама фойдаланиш ҳисобига туризм соҳасида фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектлари учун кўшимча шароитлар яратишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Учрашувда Қорақалпоғистон ва Қозоғистоннинг туризм соҳасидаги тадбиркорлари ўртасида ҳамкорликни йўлга қўйиш, туристик маршрутларни ишлаб чиқиш, туристлар оқимини кўпайтириш юзасидан фикр алмашилди.

ЎЗА

Ҳавзаларни тўлдириб оқиб турган зилол сувнинг ҳар қатраси тиллодан-да қиммат. Айниқса, ҳаво ҳарорати кўтарилган сари сувнинг кадр-қиймати яна-да ортиб боради. Аммо энг муҳим паллада ҳам оқар сувга одамларнинг гайринисоний муносабати ҳар бир ақл эгасини жиддий мулоҳазага морилаши зарур.



Турли манфаатлар тақозосига кўра инсон кўли билан бунёд этилган очик сув ҳавзалари бугун айрим қимсаларнинг шуурсиз ҳаракатлари таъсирида экологик хатарли ҳолатга тушиб, сувининг ифлосланиб кетаётгани кўпчиликини жиддий тавнишга солмоқда. Ёши катталар бундан эллик-олтмиш йил олдин канал ва анҳорлар сувига нон ботириб еганларини кўп эслашади. Ҳозир эса бунга кўпчилик ишонолмаслиги ҳам бор гап. Бугун каналларда сув таркиби шу қадар ифлоски, ўзидрометнинг шу кунлардаги хабарига айтилган, Бўзув каналдан ажралиб чиққан Салар, Корасув, Кайковус ва Анҳор каналлари сувлари таркибиде ифлосланиш даражаси кўрсаткичларидан ҳам буни бишлиш мумкин. Айниқса, Салар ва Корасув каналларида сув таркиби жуда кучли ифлосланган. 22 июнь ҳолатига кўра бу икки каналдаги ифлосланиш даражаси 15 июндаги ҳолатдан 2,5-3 баробар кўпга ошганини кўриш мумкин.

ОГОҲ БЎЛИНГ, ОДАМЛАР! Юртимизга аномал иссиқ ҳаво тўлкини кириб келиши ортидан, болалар ва хатто ёши катталарнинг ҳам очик сув ҳавзаларида чўмилишга бўлган эҳтиёж ва интилиши ортади. Аммо бу қадар ифлос каналларда чўмилиш соғлиқ учун зарарли. Ўзидромет бош директори Ш.Ҳабибуллаев ҳам фејсбукдаги саҳифасида буни эслатиб ўтган. «Дам олиш кунлари очик ҳавзали каналларда чўмилиш тавсия этилмайди», дейилади ҳабарда. Ўзидромет мутахассислари Тошкентнинг Салар каналидаги экологик вазият тобора ёмонлашиб бораётгани борасида пойтахт меҳмонлари ва аҳолисини жиддий оголантиришган. Энди канал сувларида сузиш мумкин эмас, аммо у хали ҳам

суғоришда ишлатилади. Бу эса ифлосланган сув қай йўл билан бўлса ҳам аҳолига хавф солиши мумкинлигини аналтади. «Салар каналининг суви, албатта, маиший максаллар учун ёки чўмилиш учун тўғри келмайди. Каналдаги сувдан дараклар ва гулларни суғориш учун фойдаланиш мумкин. Аммо сабзавот ва бошқа кишлоқ хўжалик экинларини суғоришга арзийдими, деган савол жудаям муаммоли бўлиб турибди», — дейди Ўзидромет мутасаддилари. Салар каналидаги экологик вазиятни барқарорлаштириш учун вақти-вақти билан санитария ишларини бажариш керак — каналга уни «ювириш» учун етарли миқдорда сув етказиб бериш лозим. Айниқса, пойтахтнинг қок марказидан оқиб ўтувчи Салар канали шахар инфратузилмасининг муҳим қисмидир. Бу канал Тошкент шаҳридаги Ҳайвонот боғи, Ботаника боғи, Экопарк, Мирзо Улуғбек истироҳат боғлари худудидан оқиб ўтади. Унинг Экопарк худудидан оқиб ўтувчи қисмида ахлат уюмлари ташланганига кўп гувоҳ бўлиш мумкин. Сўнгги йилларда каналларга тугаш худудларини ободонлаштириш бўйича ишлар олиб борилмоқда, аммо бу хали етарли эмас. Чунки бундай ишлар ё чин кўнгилдан бажарилмайди, ё аҳолининг экологик савияси куйилашиб бормоқда. Акс ҳолда каналларда оқётган зилол сувлар бу даражада оғура айланаб қолмаган бўларди. Беш йиллик таҳлилларга назар солиб шунини кўриш мумкин-ки, 2015 йилдан 2018 йилгача бўлган даврда Тошкент шаҳри остидаги қисм ифлос сувларнинг ИВ синфига, 2019 йилда эса жуда ифлос сувларнинг В синфига, Янгийўл шаҳридан пахтадаги қисми 2015 йилдан 2019 йилгача бўлган даврга тегишли В синфиде жуда ифлос сувларга мансуб, деб топилган.


ТАРМОҚЛАШГАН ЗАРАР ОҚИБАТИ Она табиатта етказилаётган зарарнинг катта қисми инсон омили таъсирида юзага келаётгани жуда аянчлидир. Хусусан, сув ҳавзаларининг юқори даражада ифлосланишига сабаб бўлаётган ҳолатлар ҳам айнан инсон тўфайли содир этилмоқда. Бу каби зарарли таъсирларни асосан уч турга таснифлаш мумкин. Аввало, ҳавзалар атрофида истикомат қилувчи аҳолининг хўжасизларча муносабати катта ифлосланишларга сабаб бўлмоқда. Маиший чиқиндиларнинг белгиланмаган жойлар, хусусан, сув ҳавзалари атрофи ва ичига ташлаб кетилиши муаммоси халигача узил-кесил бартараф этилгани йўқ. Аҳолининг экологик савияси йиллар давомида тўғри шаклланиб, нафақат сувга ахлат ташлаш, балки ота-боболаримиз таъкидлаганидек, унга тулуриш ҳам мумкин эмас, деган қатъий тўхтамга келишлари энг муҳим зарурат тусини олмакда. Афсуски, бугун уйи яқинидаги анҳор ва каналларга хонадон оқова-чиқиндиларини муттасил чиқариб туришни ўзига муносиб кўраётган қимсалар ҳам йўқ эмас. Бу каби ҳолат сув ва ундаги барча тирик жонотлар ҳаётини хавф остига қўяди. Сув бўйи экотизимига катта хатар етказилади. Бундан сувда яшовчи ҳайвонот ва ўсимлик дунёси жиддий зарар кўради. Энг асосийси, бу ҳолат инсон саломатлигига сезиларли салбий таъсир ўтказилади. Жисмоний шахслар ва олдий фуқароларнинг яққа ҳолдаги ноўрин ҳаракати сув ҳавзаларининг ифлосланишига шунчалик таъсир кўрсатар экан, энди дора, корхона ва ташиқлотларнинг нотўғри муносабати ҳавзалар учун қанчалик катта хавф солишини тасаввур қилиш қийин эмас. Айниқса, қимёвий

аралашмалар ҳамда тиббиёт чиқиндиларининг утилизация қилинмасдан тўғридан-тўғри сувга оқизилиши жуда катта салбий оқибатларга сабаб бўлиши муқаррар. Кунига бир неча минг куб метр зарарли оқова чиқарилаган муассасалар фаолиятига, афсуски, хали узил-кесил барҳам бера олганимиз йўқ. Шунингдек, ҳавзалар суви ва атрофини тўла муҳофазага олиш, ифлосланишига йўл қўйилмаслиги учун етарли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш, бундай худудлар тозаллиги учун тизимли фаолиятни йўлга қўйиш, ҳукуқбузарларга нисбатан жиддий ва таъсирли кураш олиб бориш ишлари ҳам хали ўз маромига етмаган кўринади. Ҳар ҳолда, сув ҳавзаларининг бугунги кундаги ифлосланиш даражаси шундай мулоҳаза юритишга асос беради. Юқорида санаб ўтилган ана шу учта ҳолат таъсирли бартараф этилмас экан, ҳавзалар сувининг экологик хатарсизлигини таъминлаш имконсиз бўлиб қолаверади.

ЧЎМИЛИШ УЧУН ХАТАРЛИ Бошқа бир масала ҳам борки, суви чиқариб туришни ўзига муносиб кўраётган қимсалар ҳам йўқ эмас. Бу каби ҳолат сув ва ундаги барча тирик жонотлар ҳаётини хавф остига қўяди. Сув бўйи экотизимига катта хатар етказилади. Бундан сувда яшовчи ҳайвонот ва ўсимлик дунёси жиддий зарар кўради. Энг асосийси, бу ҳолат инсон саломатлигига сезиларли салбий таъсир ўтказилади. Жисмоний шахслар ва олдий фуқароларнинг яққа ҳолдаги ноўрин ҳаракати сув ҳавзаларининг ифлосланишига шунчалик таъсир кўрсатар экан, энди дора, корхона ва ташиқлотларнинг нотўғри муносабати ҳавзалар учун қанчалик катта хавф солишини тасаввур қилиш қийин эмас. Айниқса, қимёвий аралашмалар ҳамда тиббиёт чиқиндиларининг утилизация қилинмасдан тўғридан-тўғри сувга оқизилиши жуда катта салбий оқибатларга сабаб бўлиши муқаррар. Кунига бир неча минг куб метр зарарли оқова чиқарилаган муассасалар фаолиятига, афсуски, хали узил-кесил барҳам бера олганимиз йўқ. Шунингдек, ҳавзалар суви ва атрофини тўла муҳофазага олиш, ифлосланишига йўл қўйилмаслиги учун етарли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш, бундай худудлар тозаллиги учун тизимли фаолиятни йўлга қўйиш, ҳукуқбузарларга нисбатан жиддий ва таъсирли кураш олиб бориш ишлари ҳам хали ўз маромига етмаган кўринади. Ҳар ҳолда, сув ҳавзаларининг бугунги кундаги ифлосланиш даражаси шундай мулоҳаза юритишга асос беради. Юқорида санаб ўтилган ана шу учта ҳолат таъсирли бартараф этилмас экан, ҳавзалар сувининг экологик хатарсизлигини таъминлаш имконсиз бўлиб қолаверади.

ЯНГИ КИТОБ

Ниҳоят «Озодлик» Ўзбекистонда



Ўзбек-венгер адабий алоқалари деганда, сайёҳ, тилшунос, ёзувчи ва шарқшунос Вамберининг XIX асрда диёримизга уюштирган сафари ёдимизга тушади. Маълумотларга кўра, Вамберининг сафари натижасида тарих, тилшунослик, адабиётшунослик, фольклор, этнография, географияга оид асарлар, лугатлар ва, ҳатто очерклар юзага келган.

Шунингдек, Вамбери Навоий, Фузулий, Насимий ва Сўфи Оллоёр ғазалларидан намуналар ва юздан ортққ ўзбек мақолларини немис тилига таржима қилган. Шу ўринда шоир ўз таржималарини араб, лотин ёзувида ҳам келтириб, туркий ва немис тилларини қиёсий ўрганишини айтиш жоиз. Айтиш керакки, XX асрда ўзбек адабиётининг куплаб намоёндаларининг асарлари венгер тилига ҳам ўгирилган. Айни пайтда Лаёш Кашшак, Геца Сеч, Янош Сентмартон, Ежеф Ратко, Шандор Петёфи каби венгер ижодкорларининг асарлари адиб ва шоирларимиз томонидан ўзбек китобхонларига тақдим этилган. Бу йил атоқли венгер шоири Шандор Петёфи таваллудига 200 йил тўлди. Венгрия Республикасининг Ўзбекистондаги Фавқулодда ва муҳтор элчиси Дюла Ковачининг фикрига кўра, эрк ва озодлик, ҳуррият қуйчиси бўлган Шандор Петёфи бор-йўғи 26 йил яшаган бўлса-да, унинг оташин шеърлари ҳамон долзарб бўлиб қолмоқда ва дунё тилларига таржима қилинапти. Унинг ижод намуналарини ўзбек китобхонларига тақдим этишда шоир Рустам Мусурмоннинг хизматлари уzigа хос. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси ахборот хизмати маълумотига

кўра, Рустам Мусурмон Шандор Петёфининг 200 йиллигига бағишлаб Венгрияда ўтказилган халқаро шеърли таржималар танловида қатнашиб, ғолиб бўлган. Шубҳасиз, бундай халқаро ижодий ҳамкорлик Ўзбекистон – Венгрия маданий алоқалари ривожига муҳим ўрин тутаяди. Бугун ўзбек ўқувчилари Шандор Петёфининг яна бир асари – «Озодлик» китобидаги юзта шеърни ўз она тилида ўқиш имконига эга бўлдилар. Маълумки, венгер адабиётининг биринчи таржимони Исҳоқ Иброҳим XIX асрда яшаб ижод қилган. Рустам Мусурмон эса мижоз адабиёт таржимасида Исҳоқ Иброҳим аъналарини муваффақиятли давом эттиряпти. Айтиб ўтиш керакки, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси томонидан ташкил этилаётган халқаро адабий анжуманларда ТУРКСОЙ ташкилоти ёзувчи ва шоирлари форуми ва «Мумтоз шеърят» халқаро форумида венгер адиблари ҳам фаол иштирок этмоқдалар. Навбатдаги «Туркий адабиёт дурдоналари» юз жилдлик тўпламининг алоҳида бир жилди ҳам венгер адиб ва шоирлари ижодига бағишланган.

Назokat УСМОНОВА, ЎЗА

Саида ИБОДИНОВА, ekogazeta.uz



Юртим

Сени куйлай олмадим, юртим,
Гарчи кўшиқ тўла борлигим.
Билмагайман ҳисларнинг исмин,
Сен ҳақингда куйлар борлигим.

Тупроғингга айлангач онам,
Унинг қадрин ортиқроқ туйдим;
Сени яхши кўргани учун
Мен боламини қаттиқроқ суйдим.

Денгиз кўзим, дедим синглимни,
Дедим: укам — тоғим, осмоним.
Хар гуллаган оғоч исмингни
Гуллагандай, гуллар жаҳоним.

Шамол бўлиб куйладим гоҳи,
Гоҳи ёмғирингдек тўкидим.
Тўрт фаслингга айлаиб охир,
Сен бўлиб, сен бўлиб ўқилдим.

Мен бағрингда яшадим, сен-чи,
Хар заррамда яшадим, юртим.
Сени куйлай олмадим, сенли
Юрагимни янграпти юрдим.

Ойдиннисо

SAVOI BERING!

? — Ишдан бўшаган ходимларимиздан бири меҳнат дафтарчасини бермаганимиз сабабли ташкилотимизни судга бермоқчи. Бу вазиятда у судда ютиб чиқиши мумкинми?
Равшан Ахмедов, Жаркўрғон тумани

? — Ўқув курсида ахборот технологиялари бўйича таълим олоқчиман. Менга таълим кредити бериладими?
Акmalжон Сиддиқов, Тошкент шаҳри

? — Хорижий тилларни ўқитиш бўйича мутахассисликка эгаман. Давлат мактабига ишга кирмоқчи эдим. Ишга қабул қилиш учун халқаро сертификатим бўлиши шартлигини айтишди. Шу тўғрисида?
Замира Ҳожиева, Шахрисабз тумани

? — Янги товар белгиси (брэнд) очмоқчиман. Уни қандай рўйхатга қўйсам бўлади?
Шухрат Дўстмуродов, тadbirkор

— Ҳа, мумкин. Меҳнат кодексининг 171-моддаси 1-қисмига кўра, иш берувчи меҳнат шартномаси бекор қилинган куни ходимга унинг меҳнат дафтарчасини ёхуд электрон меҳнат дафтарчасидан кўчирмани, шунингдек, меҳнат шартномасини бекор қилиш тўғрисидаги буйруқнинг кўчирма нусхасини бериши шарт.

Бахтиёр Жаҳонгир, хуқуқшунос

— Ҳа, берилди. Таълим кредитлари тижорат банклари томонидан ИТ-парк резиденти бўлган нодавлат таълим ташкилотларининг ўқув курсларида ахборот технологиялари соҳасида тахсил олиш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 65 бараваригача бўлган миқдорда 1 йиллик имтиёзли давр билан 4 йил муддатгача Ўзбекистон Республикаси фуқароси бўлган ҳамда Ўзбекистон Республикасида доимий яшайдиган фуқаролиги бўлмаган ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз ёшдан ошмаган шахсларга ажратилади.

Yurist_blogger расмий телеграм канали

— Ҳа, тўғри. Вазирлар Маҳкамасининг 19.05.2021 йил 312-сонли қарори 9-бандига биноан 2022/2023-ўқув йилидан бошлаб давлат таълим муассасаларининг хорижий тиллар ўқитувчилари лавозимларига ишга янги қабул қилинаётган талабгорлар камиди В2 даражадаги миллий ёки унга тенглаштирилган мос даражадаги халқаро сертификатга эга бўлиши лозим.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

— Давлат патент идораси директорининг 2009 йил 24 июндаги 72-сон буйруғи билан тасдиқланган «Товар белгиси ва хизмат кўрсатиш белгисини рўйхатдан ўтказиш учун талабнома тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш» қондаларига кўра, товар белгисини рўйхатга олиш жисмоний ёки юридик шахс томонидан Адлия вазирлигининг Саноят мулк муҳофазаси порталига (ip.adliya.uz) талабнома топшириш орқали амалга оширилади.

Адлия вазирлиги Ахборот хизмати

O'zingizni qiziqitgan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manzilingizga yo'ling, bizning mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.
90 245-18-10

✓ Истиқлол ҳақида суҳбатлар

«Севарсой» учрашувлари давом этади

Кейинги кунларда Бўстонлик туманининг Севарсой қишлоғи ўзига ҳос жонли мулоқот ва ижодий учрашувлар маконига айланди.

Мамлакатимиз мустақиллиги байрами арафасида Касаба уюшмалари Федерацияси раҳбарияти ташаббуси билан «Севарсой» дам олиш масканида ташкил этилган навбатдаги жонли мулоқотларда маданий-маърифий ўзгаришлардан ташқари Янги Ўзбекистоннинг ички ва ташқи сиёсати, кейинги йиллардаги туб ислохотлар натижалари ҳам кизгин муҳокама қилинган.

Куни кеча ўтган навбатдаги мулоқотда таникли адабиётшунос олим, таржимон, «Миллий тикланиш» демократик партияси фахрийси, Ўзбекистон Қаҳрамони Иброҳим Ғофуров ва Ўзбекистонда

хизмат кўрсатган маданият ходими, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутати Хуршид Дўстмуҳаммад иштирок этиб, тиббиёт ходимлари ҳамда санаторийда дам олаётган фуқароларга ижтимоий-иқтисодий ва маданий-маърифий соҳалардаги ўзгаришлар ҳақида атрофлича маълумотлар бердилар. Хусусан, Иброҳим Ғофуров бугунги фаровон ҳаёт ва унинг аҳамияти ҳақида гапирар экан, ҳақиқий фаровонлик қалбдаги ғоялар ва интеллектуал тикланишда эканини таъкидлади. Унинг фикрича, юртимизда фуқароларнинг интеллектуал салоҳиятини юзага чиқариш, инсон кадрини улуглаш ҳамда фуқаролар манфаатини ҳимоя қилишга қаратилган ислохотлар натижасида аҳолининг айниқса, ёшларнинг эртанги кунга бўлган




ишончи ортиб борапти. Қайд этиш жоизки, тadbирда хануз кизгин ижод қилаётган қаҳрамон адибнинг ҳаёт йўли, етмиш йиллик ижодий фаолияти, дунёнинг буюк ижодкорлари асарларини ўзбек тилига таржима қилишга қўшган беназир хиссаси ҳақидаги маълумотлар санаторийда дам олаётган ҳамюртларимиз томонидан алоҳида эътироф этилди.

Ўзининг бетакрор асарлари билан ўзбек адабиёти ривожига муносиб ҳисса қўшаётган таникли ёзувчи, ҳокисор инсон — том маънодаги миллат зиёлиларидан бири Хуршид Дўстмуҳаммаднинг истиқлол ва истиқбол, адабиёт ва жамият ҳақидаги фикр-мулоҳазалари эса кизгин савол-жавобларга улаиб кетди.

Бетакрор тоғлар бағрида билдирилган уйғок фикрлар акс-садоси юртошларимизни изланувчанликка, юрт тараққиёти йўлида бирлашишга ундади, десак хато бўлмайди.

Шу ўринда қайнок сокинлик бағрида кад ростлаган «Севарсой» одамлар саломатлигини мустаҳкамлашга хизмат қилишдан ташқари адабий-бадиий кечалар учун ҳам ажойиб майдонга айланганини қайд этиш жоиз.

Муҳаббат Тўрабоева журналист



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Iltom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
Feruza MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPOV,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Mabhuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 7 193.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 2 bosma taboq
Buyurtma: G – 816
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 04:40

ISSN 2010-7714

123456